

SHAYBONIYLAR DAVRI HAMDA BEDIL VA MASHRAB FALSAFASI

ERKINOV DIYORBEBK DILSHOD O'G'LI.

TDTTr.U talabasi.

Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ilmiy raxbar.

Annotatsiya: Temuriylar sulolasidan so'ng O'rta Osiyoda beqarorlik vujudga keldi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'zgardi. Siyosiy ziddiyatlar paydo bo'ldi va hokimiyat Shayboniylar qo'lga o'tdi. O'z davrining atoqli faylasufi va shoiri hisoblangan Bedil Markaziy Osiyo xalqlari madaniy va falsafiy rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Mashrab falsafasida insonlarni himoya qilish asosiy g'oya bo'lgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy jarayon, beqarorlik, Mirzo Abdulqodir Bedil, Boborahim Mashrab, falsafa.

Abstract: After the Timurid dynasty, instability arose in Central Asia. Socio-economic processes have changed. Political conflicts arose and power passed into the hands of the Shaibanis. Considered a famous philosopher and poet of his time, Bedil made a great contribution to the cultural and philosophical development of the peoples of Central Asia. Protection of people was the main idea in Mashrab's philosophy.

Key words: Socio-economic process, instability, Mirzo Abdulkadir Bedil, Boborahim Mashrab, philosophy.

Temuriylar sulolasidan so'ng O'rta Osiyoda beqarorlik vujudga keldi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'zgardi. Siyosiy ziddiyatlar paydo bo'ldi. Temuriylar bilan shayboniylar o'rtasida ixtiloflar kelib chiqdi. Shaybonixon 1499-1500 yillarda Turkistondan Samarqandgacha yurish qildi. Lekin Samarqandi bosib olish uchun olib borilgan dastlabki harakatlar barbod bo'ladi. Ammo, Buxoro viloyati, Qorako'l, Qarshi, /uzor va boshqa joylardagi

qo‘zg‘olonlarning bostirilishi va Samarqandni olti oy qamal qilib, Boburning Samarqandni tashlab chiqishga majbur etilishi Movarounnahrdagi faoliyatga ta‘sir etmay qolmaydi. Shaybonixon Samarqandni, keyinroq Andijon, Toshkent, Hisor, Badaxshon o‘lkalarini o‘ziga qaratib, Xorazmga yurish qildi va uni egalladi. Ana shu jarayonlarning o‘zi mamlakatni madaniy, ma‘naviy, falsafiy jihatlariga ta‘sir etadiki, bu ta‘sir ma‘lum ma‘noda xalqlar faoliyatini ham o‘zgarishiga olib keladi. Xurosonni egallagan Shayboniyxon Eronni ham bosib olmoqchi bo‘ladi. Biroq, Eron shohi Ismoil 1510 yilda Marv yaqinida 17 ming kishidan iborat qo‘shini bilan Shayboniyxonni qamal qiladi va mag‘lubiyatga uchratib, Shaybonixonni esa o‘ldiradi. Ta‘kidlash kerakki butun umrini toj-taxt uchun kurashda o‘tkazgan Shayboniy buyuk hukmdor bo‘lgan. O‘z davrining yirik lashkarboshchisi va shoiri ham edi. U o‘z sulolasi manfaatlari uchun ilm-fan, san‘at, adabiyot ahllarini o‘z saroyiga atrofiga to‘plagan edi. Temuriylar saroyini tark etgan Muhammad Solih hamda Binoiylarni o‘z panohiga olgan. Ma‘lumki, Muhammad Solih Shaybonixon haqida tarixiy doston “Shayboniynoma”ni yozib qoldirgan. Bu dostonda Shayboniylar davri batafsil yoritilgan. Unda ikki sulola (temuriylar va shayboniylar) o‘rtasidagi toj-taxt uchun kurash natijada ko‘p shahar va qishloqlar xonavayron bo‘lgani, minglab kishilar qirilib ketgani, ochlik va ommaviy kasalliklar vujudga kelgani yoritilgan.

Muhammad Solih dostonida Shayboniyxonning shahar va qishloqlarga bostirib kirishini tasvirlab:

“Hech kim qolmadi ul vaqt quruq,
yo‘q erdi molu qiz olurg‘a so‘ruq”,
yoki

“Bottilar molg‘a lashkar borcha,
bo‘ldilar boy-tovongar borcha”.

deydi. “Molu qiz olish” da Shaybonixonning o‘zi ham nazardan chetga qoldirilmasdan tasvirlanadi. U Boqi Tarxonni yengib Buxoroni qo‘lga kiritganida, 12 yashar norasida qizni xotinlari qatoriga qo‘shib oladi. Shayboniyxon Kaxon va

Alojaxonlarni hiyla-nayrang bilan yengib asir olar ekan, ularni xotin-qizlariga haqoratli soʻzlar aytadi, Shaybonixonni

“Oʻzga xonlar kabi majlis qurmas,

Ayshu ishrat soridin dam urmas.

Boda ichmoq sari boʻlmas moyil,

Bir zamon ishidin boʻlmas gʻofil”,-

deb, taʼriflaydi, Muhammad Solih. Ushbu faoliyat va hodisalardan koʻrib turibmizki oʻsha davrlarda oʻlkada notinchlik boʻlib barqaror rivojlanish uchun imkoniyat boʻlmagan. Shunday boʻlsada, oʻsha davrda yozilgan asarlarning koʻpchiligida xalq ommasining faoliyati, uning vatanparvarligi, qahramonligi, jabrdiydaligi adabiyotlarda tasvirlanadi. Jumladan Shodiyning “Fathnomai xoniy” asarida ham xalq turmush tarzi aks ettirilgan. Shayboniylar davridagi falsafiy faoliyat koʻproq diniy eʼtiqod asosida rivojlandi. Xudoning amri irodasi asosidagi fikrlar hukmronlik qildi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning birinchi yarmilarida Oʻrta Osiyoda falsafiy fikrlar uchun oʻzgarishlar boʻlaboshladi. Bu oʻzgarishlar misolida mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721)ni olish mumkin. Mirzo Bedil Hindistondagi Bengaliyaga qarashli Azimobodda xizmatchi oilasida tugʻilgan va Dehlida vafot etgan. U 120 ming misradan ortiq sheʼr va 20-25 bosma taboqdan iborat nasr yozgan. Falsafaga doir “Irfon” (bilim), “Chor unsur” (toʻrt unsur), “Nuqot” (hikmatli soʻzlar) kabi asarlarni yozgan. M. Bedil falsafada panteist boʻlib, xudo va tabiatni aynan birdaydir, bir-biriga mos tushadi, degan fikrda turgan. Oʻz davrining atoqli faylasufi va shoiri hisoblangan Bedil Markaziy Osiyo xalqlari madaniy va falsafiy rivojiga ulkan hissa qoʻshgan. Bedil yashagan paytlarda “Vaxdati vujud” (jismoniy borliq) va “Vaxdati mavjud” (olam borligʻi) oqimlari boʻlgan. “Vaxdati vujud” da “dunyo” – “xudo” demakdir, deyilgan boʻlsa, “Vaxdati mavjud”da – “xudo” – dunyo demakdir deb aytilgan falsafiy fikrlar oʻrtaga tashlangan. Yaʼni birinchisida xudoni haqiqiy real, deb tushunilgan boʻlsa, qolgan narsalar xudoning karomati, shuʼlasidir, deb tushuntirilgan.

Ikkinchisida esa tabiatning abadiyligi materiya va ruhning birligi, xudo olamni o‘zida mavjudligi, deb tahlil qilingan.

Bedilning falsafasida barcha borliq havodan tashkil topgan. U o‘zining “Chor unsur” asarida substansiya – “havo”dir, deb tushuntiradi. “Irfon” asarida esa, “havo” – barcha mavjud narsalarni yaratuvchisi (vujudmavjud) deb izohlaydi. Havo-Bedil fikricha, - mutloq, abadiy, harakatchan, yengil, rangsizdir. U asosan yuqori va quyi tomon harakat qiladi. Havo o‘zida suv zarrachalarini, olov zarrachalarini, yer zarrachalarini singdiradi. Mazkur narsalarning qo‘shilmasi borliqdagi predmet va hodisalarni keltirib chiqaradi. Bedilning bu fikrlaridan ma’lumki, tevarak-atrofdagi barcha turdagi predmet va hodisalar doimiy harakatda, rivojlanishda, aloqadorlikda, bog‘lanishdadir. U o‘zining “Chor unsur” kitobida tabiat abadiy haqiqatdir, ya’ni abadiy bordir, uning ko‘rinishlari, shakllari, xilma-xilligi ham o‘zidadir, deb ifodalaydi. Olam sifat jihatdan bir me’yorda turmaydi. Materiya shaklga egadir. Shaklsiz materiya – materiya shaklsiz bo‘lmaydi. Materiya pardani ochmasa, shakllar ifodalanmaydi.

Bedil ta’limotida mavjudot birligiga katta ahamiyat bergan. Modda bilan ruh, tan bilan jon o‘zaro aloqadadir. Uning fikricha jismlardan tashqarida ruh olami bor, deyish noto‘g‘ridir. Jismlar olamini ruhlarsiz tushunish ham to‘g‘ri emas. Tan quvvati kuchi, organizmning tirikligidir. Agar organizmga zarar yetsa, ruhning quvvati ham zararlanadi. Bedil falsafasining asosiy muammolaridan biri u olamni bilishga ham e’tiborni qaratdi. Bilishning birinchi bosqichi ob’ektiv olamdir. Moddiy olamni ta’sirida bilimni hosil qiluvchi his-tuyg‘ular, sezgilar harakatga keladi. Sezgi organlari faoliyatini to‘g‘ri tushungan Bedil, hidlash, ko‘rish, ta’min bilish, eshitish va teri orqali sezishlarni mohiyatini tahlil qilib berdi. Bedil falsafasida olamni bilish faqat sezgilar bilan chegaralanmaydi, balki insonning aql-farosati, tafakkuri bilan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ya’ni bilishda hissiy va aqliy tomonlarni dialektik munosabatini to‘g‘ri tushunadi.

Bedil o‘z davrining ilg‘or tafakkur egasi sifatida ijtimoiy hayot masalalariga ham o‘z e’tiborini qaratdi. Uning asarlari va she’rlarida turmush

tarzining xilma-xil sohalari ochib berilgan. Ma'lum qarashlarida insonlarni birdamlikka g'ayrat, shijoatga chorlab:

Himmat kamarini bog'lagan hamon,

Chumoli yengadi sherni begumon –

degan bo'lsa, ikkinchi bir fikrida rahbarlar faoliyatini tasvirlab: “Dunyoda odamgarchilikni bilmaydigan arbobdan madad kutib, umringni zoe o'tkazma” deb nasihat qiladi. O'z faoliyatida xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni tiyran sezib, adolat, osoyishtalik, yurt tinchligi bo'lishini orzu qilgan:

Agar qilcha nizo bo'lsa odamda,

Yo'qolur osoyish, tartib olamda.

Yuz xumda tiniq sut bo'lsa, barini –

Achitar nim tomchi sirka bir domda.

Bedilning falsafasida inson faoliyati markaziy o'rinni olgan. U bir she'rida

Insonning qiymati emas so'mu zar,

Insonning qiymati ilm ham hunar.

deb fikr bildiradiki, bu fikrda insonning qadri faqat moddiylik boylik emas, balki, uning qiymati ilm va hunar bilan belgilanadi. O'zining falsafiy fikrlari bilan dunyo falsafiy jamiyatidan munosib o'rin olgan.

M. Bedil olamni zabt etishning birdan bir yo'li fan orqali deb tushunadi. Bu esa uning falsafasini asosini tashkil etadi. Fanni ishlab chiqarish bilan bog'lashga chorladi. Demak, uningcha amaliyot bilan, tajriba bog'lanmasa barcha bilimlar inson qalbiga yetib bormaydi. U o'z falsafasida insonlarni halol ishlab, halol yeyishga chaqirdi. Tamagarchilik, yolg'onchilik, loqaydlik bilan yashovchilarni tanqid qiladi. Bu haqda yaxshilardan begona bo'lmayin desang, yomon so'zlovchilar, g'iybatchilar bilan do'st bo'lma, o'zingni to'g'ri ko'rmoqchi bo'lsang, oynaning orqasiga qarama – deb aytgan, falsafiy-axloqiy fikrlari bizning zamonamiz uchun ham katta ahamiyatga egadir.

O'rta Osiyo falsafiy fikrlarini rivojlanishida muhim hissa qo'shgan ulkan faylasuf Boborahim Mashrab (1657-1711)dir. U yashagan davr ijtimoiy-siyosiy

jarayonlarni keskinlashgan bir davri edi. Toj-taxt uchun kurashlar davom etayotgan, xalqning ahvoli og'irlashayotgan edi.

Mashrab falsafasida insonlarni himoya qilish asosiy g'oya bo'lgan. Uning qarashlari "Devoni Mashrab" she'rlar to'plamida aks etgan bo'lib, bu to'plam bizgacha yetib kelgan. Ushbu to'plamda o'zi yashagan davrni "urbatxona" deb aytadi. Adolatsizlik va jaholatni, zulm-zo'ravonlikni qoralaydi. Xalq faoliyatini olqishlaydi:

Dili tig'i sitamdan yora bo'lgan xalqni ko'rdim,

Tani dardu olamdin pora bo'lgan xalqni ko'rdim,

deb, xalq faoliyatini ayanchligidan afsuslanadi. Boborahim Mashrab adabiyoti tasavvuf ilmi bilan bog'langan. Bahouddin Naqshband ta'limoti bilan sug'orilgan. O'z she'rlarida ilohiy haqiqatni, ilohiy ishqni kuylaydi. Mashrab o'zining o'tkir zehni va qalami orqali hukmron tabaqalarni, shaxslar va imomu mullalarni ayovsiz tanqid ostiga olgan. Undagi insonparvarlik, amaldorlarga nisbatan bo'lgan harakat shariat peshvolariga yoqmaydi. U tazyiq ostiga olinadi. Hukmdorlardan bo'lgan Mahmud Qatog'onning farmoni bilan Mashrab 1711 yilda Qunduz shahrida dorga osib o'ldiriladi.

REFERENCES

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева. [ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ](#). STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 52-55.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинозхон Лазиз кизи. РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 60-63.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбой кизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 56-59.

4. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Хайрулла Ўғли, & Ганибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (3), 16-21.
5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухолиқов, Диёрбек Сайрбек Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ТУРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (3), 41-46.
6. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Қурамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗARO АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 44–50.